



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 12 (14)
2025**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

12

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	7
Tursunov A.M. Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	18
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	21
Axunov M.A. Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	24
Исраилова Д.К. “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	28
Шокирова Г.М. Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	33
Vaxtohonova D.N. Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	36
Xasanova X.F. Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	41
Бегимова Д.К. Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	45
Mirzayev B.S. CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	50
Mirzarahimova A.A. Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	53
Азимов О.Т. Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	56
Халмирзаев А.А. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	62
Шоабдурахимова М.М. Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	68
Xolmuratov O.T. Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	72
Yarashev M.O., Nabieva S.A. Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	76
Кабилова К. Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	80
Махмудова С. Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	85
Захидова Ш.Ш. Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	89
Saidaxmedov N.X. Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	97
Усманова С.С. Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	100
Madrahimov U.A. Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	104
Джалилов Д.А. Капиталнинг ялли ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	108
Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	111
Mahmudov Sh.N. Location and development of industrial sectors in the regions.....	115
Ustadjalilov D.R. O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	119
Гайбуллаев Ф. Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	125
Abdurazakova F.D., Normurodov X.E. Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	129
Muxtarov M.M. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	136
Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H. Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	140

Rahmatova N.A., Mustafayeva H. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	147
Ахмедов Х. Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	154
Boboyev A.Ch. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	159
Исраилов З.А. Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	165
Ikromov A.Sh. Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	169
Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш. Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	175
Elmurodov Sh.Sh. A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	183
Axmadjonov S.S. Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	188
Sabirova Z.U. Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	192
Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R. Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	197
Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х. Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	203
Zoxidov T.M. Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	211
Nabiyeva N.M. Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	216
Sharofiddinov Sh.U. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	221
Nurmatov Z.Sh. O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	225
Содиқов А.М., Зокиров С.С. Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	230
Narmanov U., Ikromova S. Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	238
Qutbiddinov A.B. Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	241
Qayumova Sh.S. Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	246
Turebekov A.A. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	252
Kurbanova M.N., Azizov A.A. Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri.....	255
Samadova G.S. O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘sishga ta‘siri.....	259
Абдуллаева Р. Инклюзив тадбиркорликнинг моҳияти ва хориж тажрибаси.....	264
To‘uchiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	268
Amnah Saeed J Alhindi The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	272
Fayziyev O.R. O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	276
Алимов Р.А., Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	280
Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X. Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri.....	284
Xaydarov X.U., Raxmonov D.R. 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta‘siri.....	288
Солижонов М.А. Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	292
Rejapov X.X. Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	297

Список использованной литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы», № УП-60. - <http://www.lex.uz>.
2. POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%2050%20%28web%29.pdf <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2022/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%2050%20%28web%29.pdf>
3. Составлено авторами
4. Разработано авторами
5. Пашков Р.В., Юденков Ю.Н. Корпоративное управление в банке (монография). - "РУСАЙНС", 2016 г.
6. Совершенствование методов оценки эффективности корпоративного управления в акционерных обществах Бегматова Д. Б.-2017 <http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/42450>
7. Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-4397 от 23.07.2019 г.
8. Boston Consulting Group & UzAutoSanoat JSC. *Uzbekistan Automotive Industry Strategy 2030*. Пресс-релиз, 2020.
9. https://uzavtosanoat.uz/ru/page/development_strategies
10. Постановление Президента Республики Узбекистан от 23.07.2019 г. №ПП-4397 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию автомобильной промышленности Республики Узбекистан». Доступ: <https://lex.uz/docs/4421709>

UDK: 336.647

MOLIYAVIY HISOBOTNI BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY STANDARTLARIDAN (BHMS) MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O‘TKAZISHNING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ПЕРЕХОДА ОТ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА (НСБУ) К МЕЖДУНАРОДНЫМ СТАНДАРТАМ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ (МСФО)

PROBLEMS AND SOLUTIONS OF TRANSITIONING FROM NATIONAL ACCOUNTING STANDARDS (NAS) TO INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS (IFRS)

Zoxidov T.M.

Alfraganus universiteti, “Buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi kunda jahon iqtisodiyoti integratsiyasi jarayonida O‘zbekistonda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tishning dolzarbligi va ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotni MHXS ga muvofiqlashtirish masalalari va transformatsiya bosqichlari belgilab o‘tiladi. Bundan tashqari, milliy standartlar bilan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari o‘rtasidagi farqlartahlilqilinadi.

Kalit so‘zlar: transformatsiya, moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), hisobotni o‘zgartirish bosqichlari.

В данной статье рассматривается актуальность и значение перехода к международным стандартам финансовой отчетности (МСФО) в условиях интеграции мировой экономики в Узбекистане. Также определяются вопросы приведения финансовой отчетности, подготовленной на основе национальных стандартов бухгалтерского учета (НСБУ), в

соответствие с МСФО, а также этапы трансформации. Кроме того, проводится анализ различий между национальными стандартами и международными стандартами финансовой отчетности.

Ключевые слова: трансформация, финансовая отчетность, международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), этапы преобразования отчетности.

This article discusses the relevance and importance of transitioning to International Financial Reporting Standards (IFRS) in the context of global economic integration in Uzbekistan. It also outlines the issues of aligning financial statements prepared under National Accounting Standards (NAS) with IFRS, as well as the stages of transformation. Additionally, an analysis of the differences between national standards and international financial reporting standards is provided.

Keywords: transformation, financial reporting, International Financial Reporting Standards (IFRS), stages of reporting transformation.

Chet el investorlarini zarur axborot muhiti bilan ta’minlash va xalqaro moliyaviy bozorlarga kirishni kengaytirish maqsadida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o’tishni tezlashtirish, shuningdek, buxgalteriya hisobi va audit bo’yicha mutaxassislarni xalqaro standartlar asosida tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida 2021-yil 1-yanvardan boshlab yirik soliq to’lovchilar va aksiyadorlik jamiyatlari buxgalteriya hisobini MHXS asosida yuritishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasida ushbu yo‘nalishda bir qator choralar amalga oshirilmoqda. Xususan, ushbu islohotlarni yanada jadallashtirish maqsadida davlatimiz rahbari tomonidan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida quyidagi vazifalar qo‘yilgan: “Mamlakatimizda 250 mlrd dollar investitsiya, shu jumladan 110 mlrd dollar xorijiy investitsiya va 30 mlrd dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish, erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlar savdosini 8 mlrd dollargacha oshirish, hududlarning investitsiya reytingini o‘tkazish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib investorlar uchun jozibadorligini qo‘shimcha oshirish, eksport hajmini ikki barobarga oshirib, uni 45 mlrd dollargacha yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingdan 15 minggacha oshirish, eksport tuzilmasida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobarga oshirish, VSP+ va boshqa tizimlar doirasida Yevropa davlatlariga tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish, xalqaro standartlarga ega korxonalarini sonini 10 barobarga oshirib, ularni 5 mingtaga yetkazish”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo’yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4611-sonli qarori ushbu yo‘nalishni yanada rivojlantirishning asosiy mezonlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu qarorga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan aksiyadorlik jamiyatlari va tijorat banklari kabi yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalar moliyaviy hisobotni MHXS ga muvofiq tayyorlash, ushbu sohada mutaxassislarni tayyorlashni xalqaro standartlarga moslashtirish, shu orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va boshqa masalalar bo’yicha vazifalar qo‘yilgan.

Buxgalteriya hisobi tizimida xalqaro standartlardan foydalanish korxonaning moliyaviy holati to‘g‘risidagi axborotni foydalanuvchilarga shaffof va ishonchli taqdim etishning asosiy omillaridan biri bo‘lib, bu orqali iqtisodiyotimiz rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Maqolada mamlakatimiz buxgalteriya hisobi tizimida xalqaro moliyaviy hisobot standartlaridan foydalanish, xalqaro standartlarni transformatsiya qilishning ahamiyati va zaruriyati bo’yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o‘rganiladi va tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida tahlil va sintez, kuzatish, tahlil va jadvallar usullaridan foydalanildi.

Maqolada O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotni moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari (MHXS) formatiga o‘tkazishning asosiy muammolari ko‘rib chiqiladi. Asosiy muammolar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Kontseptual va metodologik farqlar: BHMS va MHXS aktivlarni baholash, daromad va xarajatlarni tan olish, xorijiy valyutadagi operatsiyalarni hisobga olish, shuningdek, zaxiralar va majburiyatlarni shakllantirish prinsiplari bo’yicha sezilarli darajada farqlanadi. Masalan, BHMS da

asosiy vositalar asosan dastlabki tannarx bo‘yicha baholanadi, MHXS esa adolatli qiymat modelidan foydalanishga ruxsat beradi.

2. Ma’lumotlarni transformatsiya qilishdagi qiyinchiliklar: MHXS ga o‘tish moliyaviy hisobot bandlarini qayta guruhlash, qayta baholash va tuzatishni talab qiladi, bu esa, ayniqsa, transformatsiya uchun yagona metodikalar yo‘qligida, ko‘p mehnat talab qiladigan jarayondir.

3. Kadrlar malakasining yetishmasligi: MHXS ni yaxshi biladigan mutaxassislarining yetishmasligi va kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish zarurati qo‘shimcha to‘siqlarni keltirib chiqaradi.

4. Texnik cheklovlar: Transformatsiya uchun elektron jadvallar (masalan, Excel) dan foydalanish imkoniyati bo‘lsa-da, tuzatishlarning aniqligi va izchilligi yuqori darajadagi professionallik va tafsilotlarga e’tiborni talab qiladi.

Belgilangan muammolarni hal qilish uchun maqolada moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish bo‘yicha tuzilgan yondashuv taklif etiladi, bu quyidagi choralarni o‘z ichiga oladi:

1. Transformatsiya bosqichlari:

➤ Joriy hisobotni tahlil qilish: BHMS asosida tayyorlangan balans, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot va boshqa hisobot shakllarini MHXS talablariga zidliklarni aniqlash uchun batafsil tahlil qilish.

➤ Bandlarni tuzatish: MHXS ga muvofiq o‘zgartirishlar kiritish, jumladan, asosiy vositalarni adolatli qiymat bo‘yicha qayta baholash (IAS 16), debitorlik qarzlari bo‘yicha kutilayotgan yo‘qotishlari uchun zaxiralar yaratish (MHXS 9), zaxiralarni tannarx yoki sof realizatsiya qiymatining eng kami bo‘yicha qayta baholash, shuningdek, shartli majburiyatlarni hisobga olish (IAS 37).

➤ Transformatsion jadvallarni ishlab chiqish: Balansning har bir bandi uchun MHXS ga muvofiqlikni ta’minlovchi tuzatishlarni tizimlashtirish.

➤ MHXS bo‘yicha hisobotni shakllantirish: Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga mos formatda tayyorlash.

➤ Audit va tekshiruv: Hisobotning ishonchliligi va MHXS ga muvofiqligini tasdiqlash uchun mustaqil auditorlar tomonidan tekshirish.

2. Metodologik yondashuvlar:

➤ Transformatsiya usuli: BHMS asosida tayyorlangan hisobotga maxsus protseduralar yordamida tuzatishlar kiritish orqali uni MHXS ga moslashtirish.

➤ Parallel hisob usuli: MHXS bo‘yicha hisobni bir vaqtda yuritishni nazarda tutadi, bu qo‘shimcha resurslarni talab qiladi, lekin aniqroq natijalarni ta’minlaydi.

3. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga muvofiq, ayniqsa aksiyadorlik jamiyatlari va yirik soliq to‘lovchilar uchun ta’lim dasturlari, treninglar va sertifikatlash orqali MHXS bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashni jadallashtirish.

MHXS ga muvaffaqiyatli o‘tish quyidagi natijalarni ta’minlaydi:

1. Hisobotning shaffofligi va ishonchliligini oshirish: MHXS ga mos moliyaviy hisobotlar foydalanuvchilarga (investorlar, hamkorlar) kompaniyaning moliyaviy holati to‘g‘risida ishonchli va taqqoslanadigan ma’lumotlarni taqdim etadi.

2. Investitsiya jozibadorligini oshirish: Xalqaro standartlarga rioya qilish “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ko‘zlangan 110 mlrd dollar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadlariga mos ravishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni osonlashtiradi.

3. Xalqaro bozorlarga integratsiya: MHXS ga mos moliyaviy hisobot global moliyaviy bozorlarga kirish imkonini beradi, bu eksportni oshirish va Yevropa davlatlari bilan VSP+ tizimi doirasida savdo munosabatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Moliyaviy ma’lumotlar sifatini yaxshilash: Aktivlarni qayta baholash, zaxiralar yaratish va daromad/xarajatlarni aniqlashtirish kabi tuzatishlar kompaniyaning moliyaviy holatini aniqroq aks ettiradi. Maqolada keltirilgan transformatsiya jadvalida balansda asosiy vositalar qiymati 5 mln so‘mga oshgan, nomoddiy aktivlar 2 mln so‘mga hisobdan chiqarilgan, debitorlik qarzlari uchun 1 mln so‘m zaxira yaratilgan va zaxiralar 2 mln so‘mga tuzatilgan, bu moliyaviy holatning aniqligini oshirgan.

BHMS dan MHXS ga o‘tish jarayoni O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qilish uchun strategik jihatdan muhim qadamdir. Bu jarayon nafaqat moliyaviy hisobot sifatini oshiradi, balki mamlakat iqtisodiyotini global iqtisodiy makonga integratsiya qilishga, raqobatbardosh ustunliklar va barqaror o‘shishni ta’minlashga yordam beradi.

Moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish — bu hisobot sanasida milliy buxgalteriya hisobi standartlari asosida tayyorlangan hisobot bandlarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari qoidalariga muvofiq qayta guruhlash, ularni yangi ma’lumot taqdim etish tizimiga o‘tkazish, qayta tan olish, qayta baholash, tuzatishlar va qayta ochib berishlar orqali amalga oshiriladi. BHMS dan MHXS ga o‘tishning umumiy bosqichlari:

Asosiy vositalarni baholash: BHMS da asosiy vositalar odatda tannarx bo‘yicha baholanadi, MHXS da esa adolatli qiymat bo‘yicha qayta baholash modeli qo‘llanilishi mumkin (MHXS 16).

Amortizatsiya: MHXS aktivning foydali xizmat muddati va qoldiq qiymatini aniqroq baholashni ta’minlaydi.

Daromad va xarajatlarni tan olish: MHXS da daromadlarni tan olish qoidalariga (masalan, MHXS 15) BHMS ga nisbatan qat’iyroqdir.

Zaxiralarni va majburiyatlar: MHXS shartli majburiyatlar va zaxiralarni aniqroq hisobga olishni nazarda tutadi (MHXS 37).

Xorijiy valyutadagi operatsiyalar: Xorijiy valyutadagi operatsiyalar (IAS 21) funksional valyutaga aylantiriladi.

Moliyaviy ma’lumotlarni tahlil qilish:

BHMS bo‘yicha joriy balans, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot va xarajatlar to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlash kerak.

Balansning har bir bandi (aktivlar, majburiyatlar, kapital) MHXS talablariga mosligini tekshirish zarur.

Transformatsion jadvallarni tuzish: BHMS balansidagi har bir hisob MHXS talablariga mos ravishda o‘zgartiriladi (masalan, asosiy vositalarni qayta baholash, zaxiralarni hisobga olish yoki shartli majburiyatlarni tan olish).

MHXS bo‘yicha balans tuzish: Transformatsiya natijasida olingan ma’lumotlarni MHXS formatida buxgalteriya balansida taqdim etish.

Hisobotlarni tasdiqlash: MHXS bo‘yicha hisobotlar odatda auditorlar tomonidan tekshiriladi, shuning uchun hisobotlarning aniqligi va standartlarga muvofiqligini ta’minlash muhim.

BHMS dan MHXS ga o‘tish jarayoni kompaniya moliyaviy hisobotini xalqaro standartlarga moslashtirish yo‘lidagi muhim qadamdir. Bu jarayon BHMS balansini tahlilini, MHXS talablariga muvofiq tuzatishlar kiritishni va yangi formatda balans tayyorlashni o‘z ichiga oladi. Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, debitorlik va kreditorlik qarzlari, shuningdek, daromad va xarajatlar kabi bandlarni MHXS standartlariga (MHXS 1, MHXS 16, MHXS 9 va h.k.) muvofiqlashtirish uchun qayta baholash zarur. Bu o‘tish aniq moliyaviy ma’lumotlar va professional yondashuvni talab qiladi, chunki mahalliy va xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari o‘rtasidagi farqlar sezilarli bo‘lishi mumkin. Natijada, MHXS ga mos balans kompaniyaning moliyaviy holatini shaffof va xalqaro miqyosda tan olingan tarzda aks ettiradi, bu esa xalqaro investorlar va hamkorlar bilan hamkorlikni osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016 yil 13 aprel. <https://lex.uz/docs/2931253>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4611-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022 yil 10 noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida”gi 61-son buyrug‘i. <https://lex.uz/docs/6312360>
4. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (1-son BHXS) “Moliyaviy hisobotni taqdim etish”. <https://lex.uz/docs/6312360>

5. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (1-sonli BHMS) “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”. <https://lex.uz/acts/828581>
6. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (3-sonli BHMS) “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot”. <https://lex.uz/acts/828581>
7. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-sonli BHMS) “Asosiy vositalar”. <https://lex.uz/acts/821041>
8. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (16-son BXHS) “Asosiy vositalar”. <https://lex.uz/docs/6312360>
9. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (15-sonli MHXS) “Xaqqoniy qiymatni baholash”. <https://lex.uz/docs/6312360>
10. Do‘muratov R.D., U.I.To‘layev. Moliyaviy hisobot: nazariya, uslubiy va amaliy jihatlari. Monografiya. – T.: “Extremum-Press”, 2012. – 144 b.
11. Kozimjonov A. MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarning o‘ziga xos xususiyatlari. “Iqtisodiyot va ta’lim” / 2023 yil 1-son. – 246 b.
12. Tashnazarov S.N. O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) o‘tishdagi muammolar va hal qilish yo‘llari. “Xalqaro moliyaviy standartlariga o‘tish va xalqaro tajribani O‘zbekistonda qo‘llashning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to‘plami. Toshkent – “Iqtisodiyot” - 2022. -335 b.
13. Karimov A.A., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Imamova N.M. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (Darslik). – T.: “Nihol print” OK, 2021. – 332 b.
14. Ergasheva SH., Ibragimov A, Rizaev N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU. “IQTISODIYOT”, 2019 y. – 321 b. (grif 1000-150, 2018 y. 7 dekabr)
15. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019. – 584 b.
16. Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. I.f.d (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T. TMI, 2019.